

**RASMIY OGOHLANTIRISH  
(TALABNOMA)**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining quyidagi Qaror va Farmonlari 01.11.2004 yildagi V.M.ning 511-sonli qarori, 29.05.2017 yildagi PF-5059-sonli Farmoni, 12.01.2018 y. V.M.ning 22-sonli qarori, 18.06.2020 yildagi PF-6010-sonli Farmoni bilan Elektr energiyasi iste'molchilari va hududiy elektr tarmoqlari korxonalari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibga solingan.

Yuqoridagi normativ xujjatlar asosida tayyorlangan va Tuman ETK bilan Sizing korxonangiz o'rtasida tuzilgan "Elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish uchun shartnoma"ning talablariga ko'ra;

1. "Elektr tarmoqlari korxonasi tarmoqlari orqali iste'molchiga elektr energiyasini yetkazib berish majburiyatini, iste'molchi esa qabul qilingan elektr haqini to'liq to'lash majburiyatini oladi"

2. "Iste'molchi" har o'ning 01-sanasidan - 05 sanasiga qadar amalda iste'mol qilgan elektr energiyasining xisobotini TETKga taqdim qilishi;

3. "Iste'molchi" tomonidan o'ning 10 sanasiga qadar iste'mol qilingan elektr energiya xajmi oldindan to'lovni inobatga oigan holda to'lov fakturasida ko'rsatilgan summani to'liq to'lab berishi;

4. O'ning 11-sanasidan boshlab, to'lovlarni to'liq amalga oshirmagan qarzdor iste'molchilarni tarmoqdan ajratish belgilangan.

**Esatma:** Elektr tarmoqlaridan uzib qo'yilgan shaxslarni elektr tarmog'iga qayta ulashda iste'molchi --- yuridik shaxslardan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi. EHNATga ulangan hisobga olish pribori avtomatik tarzda BILING dasturi tomonidan o'chirilgan iste'molchilarni tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi.

Xurmatli iste'molchi !!!

Yuqoridagilarga muvofiq Sizdan, har o'ning 10 sanasigacha to'liq xisob kitobni amalga oshirishingiz talab qilinadi. Aks holda, o'ning 11-sanasidan boshlab elektr tarmog'idan qo'shimcha ogohlantirishsiz uzilishi, to'plangan xujjatlar xosil bo'lgan qarzdorlik, avans summasi, qayta ulov uchun to'lov summasi, davlat boji, jarima, penya hamda pochta xarajatlarini majburiy undirish to'g'risida tegishli sudga da'vo arizasi kiritilishini ma'lum qilamiz. Qarzdorlik uchun tarmoqdan o'chirilganda kelib chiquvchi turli oqibatlar uchun javobgarlik qarzdor iste'molchi zimnasida qoladi.

*Mazkur ogohlantirish asosiy shartnomaning ajratmas qismi hisoblanib 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.*

Ta'minotchi korxonasi



Iste'molchi

